HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

THE EFFECTIVENESS OF THE PSYCHOLINGUISTIC APPROACH IN TEACHING ENGLISH: IN THE CONTEXT OF MODERN EDUCATION AND EXACT SCIENCES

Raimova Kamola Bakhramovna
Senior Lecturer, Department of Foreign Languages,
Tashkent International University
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.21916527

Abstract: This article analyzes the role and effectiveness of the psycholinguistic approach in teaching English, particularly to students of exact sciences (STEM). Based on experimental research, the positive impact of psycholinguistic methods, engaging cognitive mechanisms and motivational factors, on students' academic performance is revealed in contrast to traditional methods. The results of the study showed that in the experimental group, which studied based on the psycholinguistic approach, the academic performance level increased by 12%. The article also analyzes the integration of modern technologies (VR, AR, AI) with the psycholinguistic approach.

Keywords: psycholinguistic approach, English language, exact sciences (STEM), motivation, cognitive processes, educational efficiency, digital technologies.

INGLIZ TILINI O'RGATISHDA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVNING SAMARADORLIGI: ZAMONAVIY TA'LIM VA ANIQ FANLAR KESIMIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini o'qitishda, xususan, aniq fanlar (STEM) yo'nalishi talabalariga chet tilini o'rgatishda psixolingvistik yondashuvning o'rni va samaradorligi tahlil qilinadi. An'anaviy usullardan farqli o'laroq, kognitiv mexanizmlarni va motivatsion omillarni ishga soluvchi psixolingvistik metodlarning talabalar o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri eksperimental tadqiqot asosida ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, psixolingvistik yondashuv asosida ta'lim olgan tajriba guruhida o'zlashtirish darajasi 12% ga yuqorilagan. Shuningdek, maqolada zamonaviy texnologiyalar (VR, AR, AI) ning psixolingvistik yondashuv bilan integratsiyasi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: psixolingvistik yondashuv, ingliz tili, aniq fanlar (STEM), motivatsiya, kognitiv jarayonlar, ta'lim samaradorligi, raqamli texnologiyalar.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ: В РАЗРЕЗЕ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ТОЧНЫХ НАУК

Аннотация: В данной статье анализируются роль и эффективность психолингвистического подхода в обучении английскому языку, в частности, студентов точных наук (STEM). На основе экспериментального исследования раскрыто положительное влияние психолингвистических методов, задействующих когнитивные механизмы и

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

мотивационные факторы, на показатели успеваемости студентов в отличие от традиционных методов. Результаты исследования показали, что в экспериментальной группе, обучавшейся на основе психолингвистического подхода, уровень успеваемости повысился на 12%. В статье также анализируется интеграция современных технологий (VR, AR, ИИ) с психолингвистическим подходом.

Ключевые слова: психолингвистический подход, английский язык, точные науки (STEM), мотивация, когнитивные процессы, эффективность образования, цифровые технологии.

1. Kirish

So'nggi yillarda ingliz tilini o'qitishda psixolingvistik yondashuv ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan va o'z o'rnini mustahkamlagan. Psixolingvistika tilni o'rganish jarayonida kognitiv va ruhiy omillarni hisobga olib, ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ayniqsa, aniq fanlar (STEM - Science, Technology, Engineering, Mathematics) yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda uchraydigan qiyinchiliklar kognitiv yuklamani to'g'ri taqsimlashni talab etadi.

STEM yo'nalishidagi talabalar odatda o'z sohalarida matematik va ilmiy tafakkurga ega bo'lishlari talab etiladi, ammo ingliz tili bilimlari ularga ilmiy adabiyotlar, akademik tadqiqotlar va xalqaro hamkorlik uchun zarur hisoblanadi. Shu sababli, ushbu talabalarga ingliz tilini samarali o'qitish aniq fanlar va til o'qitish metodologiyasining integratsiyasini talab qiladi. Tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, STEM ta'limidagi talabalar orasida chet tilini o'rganish bilan bog'liq motivatsiya darajasining pastligi kuzatiladi. Psixolingvistik yondashuv bu muammoni hal qilishning optimal yo'li hisoblanadi.

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Psixolingvistika til o'rganish jarayonida inson miyasidagi psixologik va kognitiv jarayonlarni o'rganadi. S. Krashen o'z tadqiqotlarida til o'rganishda o'zlashtirishning ahamiyatini ko'rsatib, motivatsiyani oshirish uchun amaliy faoliyatning rolini ta'kidlagan. J. Hulstijn esa ongsiz va ongli jarayonlarning ahamiyatini tahlil qilib, grammatik qoidalarni va so'zlarni amaliyotda avtomatlashtirish qobiliyatlariga urg'u bergan.

Tadqiqotimizda ishtirokchilar sifatida aniq fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan, yoshi 18-22 oralig'ida bo'lgan "Matematika va informatika" yo'nalishi bakalavr talabalari tanlandi. Tasodifiy tanlov usuli orqali talabalar ikki guruhga bo'lindi: Tajriba guruhi (12 nafar talaba) va Nazorat guruhi (13 nafar talaba). Tajriba guruhi psixolingvistik yondashuv asosida ingliz tilini o'rgangan bo'lsa, nazorat guruhi odatiy an'anaviy (grammar-translation) metodlar asosida ta'lim oldi. Tadqiqot boshlang'ich va yakuniy testlar orqali baholandi, shuningdek jarayon davomida so'rovnoma va kuzatish usullaridan foydalanildi.

3. Muhokama

Aniq fanlar talabalari uchun abstrakt til qoidalarini yodlash qiyin kechadi, chunki ularning miyasi analitik tahlilga moslashgan. Shuning uchun ularga tilni kognitiv mexanizmlar - mantiqiy zanjirlar, vizual sxemalar va interaktiv amaliyotlar orqali yetkazish kerak. So'nggi o'n yillikda yangi texnologiyalar ta'lim jarayoniga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Virtual reallik (VR), sun'iy intellekt (SI) va

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

aralash reallik (AR) kabi texnologiyalar yordamida o'rganuvchilar til o'rganish jarayonida immersiv tajribaga ega bo'lishi mumkin. Psixolingvistik nuqtai nazardan, bu texnologiyalar talabalarning idrok va eslab qolish qobiliyatlarini faollashtiradi. Masalan, virtual muhitlarda muloqot qilish orqali talabalar o'z bilganlarini tezda qo'llay olishadi, bu esa o'qitish samaradorligini keskin oshiradi.

4. Natijalar

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi talabalari tilni o'zlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Test natijalariga ko'ra, tajriba guruhida o'quvchilarning bilim darajasi o'rtacha 65 balldan 77 ballga (12% o'sish) ko'tarildi. Nazorat guruhida esa o'rtacha ball 64 dan 67 ballga (3% o'sish) yetdi, xolos. Ushbu yutuq psixolingvistik yondashuvning samaradorligini yaqqol ko'rsatib berdi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, psixolingvistik yondashuv orqali o'qitilgan tajriba guruhida leksik va grammatik bilimlarni egallash bo'yicha yuqori samaradorlikka erishildi. Leksik bilimlarni o'zlashtirishda 15% gacha ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Bunga sabab, yangi so'zlarni o'rganishda piktogrammalar, vizual yordamlar va kontekstga asoslangan mantiqiy mashqlar ishlatilganidir. Shuningdek, talabalarning o'qishga bo'lgan ichki motivatsiyasi oshdi. Ammo shuni ham qayd etish joizki, psixolingvistik yondashuv o'qituvchilardan maxsus tayyorgarlik talab etadi va dastlabki bosqichlarda o'quvchilar uchun yuqori kognitiv yuklama hosil qilishi mumkin.

5. Xulosa

Tadqiqotimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, psixolingvistik yondashuv orqali aniq fanlar yo'nalishidagi talabalarning ingliz tilini o'rganish samaradorligini sezilarli oshirishga erishildi. Yondashuv talabalarning motivatsiyasini oshirish, yangi lug'at va grammatik bilimlarni samarali idrok qilish hamda tilni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini yaxshilashda o'zining mutlaq afzalliklarini namoyon etdi. Kelgusida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt platformalarini psixolingvistik metodika bilan integratsiya qilish orqali ta'lim sifatini yanada yuqori darajaga olib chiqish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Djabbarova F.O. Psixolingvistik yondashuvning ingliz tilini o'rgatishda so'nggi yillardagi samardorligi tahlili. Academic Research in Educational Sciences, 2024.
2. Djabbarova F.O. Aniq fanlar yo'nalishi talabalarining ingliz tili ko'nikmalarini rivojlantirishda psixolingvistik yondashuvning roli. NamDU Ilmiy Axborotnomasi, 2024.
3. Krashen, S. D. Second language acquisition and second language learning. Oxford, UK: Pergamon Press, 1981.
4. O'zbek tilini o'qitishning psixolingvistik asoslari. O'quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2019.